

O'ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Abjalov Abdijabbor Maxammadiyevich

IIV Malaka oshirish instituti Maxsus kasbiy fanlar kafedrası dotsenti, dotsent.

Annotatsiya. O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq tendensiyalarning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Jumladan, ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlari, mavjud muammolar ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Umuman olganda, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi va uni yanada samarali amalga oshirishning istiqbollari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Innovatsion rivojlanish, jamoat, xavfsizlik, global, axborot, texnologiya, raqamli texnologiya, internet, ma'naviyat, xakerlar.

Аннотация: Раскрыта суть тенденций, связанных с внедрением современных информационных технологий в обеспечение общественной безопасности в Узбекистане. В частности, научно изучены основные направления этого процесса и существующие проблемы. В целом проанализирована эффективность проводимой в нашей стране работы по использованию современных технологий в обеспечении общественной безопасности и перспективы ее более эффективной реализации.

Ключевые слова: Инновационное развитие, общественная, глобальная, информационная, безопасность, цифровые технологии, Интернет, духовность, хакеры

Annotation. The essence of the trends related to the introduction of modern information technologies in the provision of public safety in Uzbekistan has been revealed. In particular, the main directions of this process and existing problems are scientifically studied. In general, the effectiveness of the work carried out in our country related to the use of modern technologies in ensuring public safety and the prospects for its more effective implementation are analyzed.

Keywords. Innovative development, Public, Security, global, Information, Technology, Digital Technology, Internet, spirituality, hackers.

O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalasi uzoq yillardan buyon davom etmoqda. Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida "raqamli" texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada davlat rahbari va hukumat tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy

hujjatlarning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati hamda ularni amalga oshirish jarayonlariga e'tibor qaratilgan. Xususan, xavfsizlik tizimlarini joriy etish va ularning ishlash bosqichlarida fuqarolarning huquqlari himoyasi, qonuniylik, shaffoflik va samaradorlik bilan bog'liq masalalar tadqiq qilingan.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, ayni vaqtda jamoat xavfsizligini ta'minlashda innovatsion texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalari, ushbu yo'nalishda mamlakatning strategik maqsadlarining mazmun-mohiyati, aynan zamonaviy texnologiyalarni jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimiga joriy etish bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining yanada samarali bo'lishiga imkon beradi. Shu bilan birga, jamoat tartibini saqlash jarayonlarida fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Shuningdek, jamoat xavfsizligi tizimiga ilg'or zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, bir qator qulayliklar bilan birgalikda xalqaro maydonda mamlakatning ijobiy imiji shakllanishiga va jinoyatchilikka qarshi kurashda yuqori samaradorlikka erishishga asos yaratadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlashda innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalasi jadal davom etmoqda. Shunga qaramasdan, mutaxassislar mazkur tizimning to'laqonli amal qilishiga to'sqinlik qilayotgan ayrim sabablar mavjud — jumladan zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlanganlik darajasining va xavfsizlik sohasida ilmiy-texnikaviy ishlanmalarning yetarli emasligi kabi holatlarni qayd etishmoqda[1].

Shu ma'noda ta'kidlash kerakki, jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalarni to'laqonli joriy etish "raqamli jamiyat"ni rivojlantirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq. Raqamli jamiyatni rivojlantirish, xavfsizlik tizimlarining samarali ishlashini ta'minlash, aholi, jamoat tashkilotlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratadi, shuningdek, nafaqat xavfsizlik sohasidagi, balki ko'plab ijtimoiy muammolarni ham hal etishga katta turtki beradi. Raqamli xavfsizlik tizimi bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) asoslangan zamonaviy yondashuvdir. Ushbu konsepsiya dastlab rivojlangan davlatlarda paydo bo'lib, bugungi kunda global ahamiyat kasb etmoqda.

Shu ma'noda ta'kidlash kerakki, davlat boshqaruviga elektron hukumatni to'laqonli joriy etish "raqamli iqtisodiyot"ni rivojlantirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, "elektron hukumat" tizimining joriy etilishini ta'minlash, aholi, biznes va davlat o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratadi, shuningdek, nafaqat iqtisodiy, balki ko'plab ijtimoiy muammolarni ham hal etishga katta turtki beradi. Raqamli iqtisodiyot bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) asoslangan

iqtisodiyotdir[2]. Ushbu tushunchani amaliyotga 1995 yilda amerikalik olim Massachusetts texnologik instituti medialaboratoriyasi asoschisi Nikolas Negroponte kiritgan[3].

Jahonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jadallashib, axborot texnologiyalari tizimlarining ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish asosida tegishli qarorlar qabul qilish imkoniyatlari yildan-yilga oshib bormoqda. BMTning savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) ma'lumotlariga ko'ra, jahonda internetdan foydalanuvchilarning trafik hajmi 1992 yilda bir kunda o'rtacha 100 gigabaytga (GB) teng bo'lgan bo'lsa, 2017 yilga kelib, trafik hajmi endi sekundiga 45 000 GB ga yetdi. Bugungi kunda barcha mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha ishlarning jadallashuvi, pandemiya sharoitida ayniqsa, internetdan foydalanishning yanada oshishi natijasida 2022 yilga kelib jahon trafiki hajmi sekundiga 150 700 GBga yetishi prognoz qilinmoqda[4]. Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, tezkor internet foydalanuvchilarining 10 foizga ko'payishi yillik YaIM ko'lamini 0,4 foizdan 1,4 foizgacha oshirishi mumkin[5].

"2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da ham muhim sohalarini raqamlashtirilishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, davlat xizmatlari, sud tizimi, huquqni muhofaza qilish organlari, yo'l harakati boshqaruvi tizimi, sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy xizmatlar, bank va qishloq xo'jaligi tarmoqlari va milliy iqtisodiyotning boshqa asosiy sohalariga yangi texnologiyalarni joriy qilish belgilangan[6]. Shuningdek, "elektron hukumat" tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va ularning 20 foizini xususiy sektorga o'tkazish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda shaxsni identifikatsiya qilishning Mobile ID tizimini joriy qilish, shuningdek, "Fuqarolarning raqamli pasporti" va «Raqamli idora» loyihalarini amalga oshirish kabi bir qator vazifalar ko'zda tutilmoqda.

BMT muntazam tarzda dunyoda elektron hukumatni joriy etish holati va tendensiyalariga bag'ishlangan tadqiqotlarni 2001 yildan buyon o'tkazib keladi[7]. Mazkur yirik xalqaro tashkilot tomonidan 2022 yilda o'tkazilgan tadqiqotda elektron hukumat faoliyatining asosiy maqsadi aholining davlat idoralariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgani alohida ta'kidlangan[8].

Ta'kidlash joizki, o'rganishlar davrida dunyo miqyosida Yevropa axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha yetakchi mintaqalar sifatida qolayotgani qayd etilgan. Keyingi o'rinlarni Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerika, Okeaniya va Afrika mintaqalari egallagan. Shu bilan birga, BMT mutaxassislari dunyo bo'yicha axborot texnologiyalarini o'sish tendensiyalariga ega bo'layotganini e'tirof etishsa-da, bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganini ko'rish mumkin.

Bu borada so'nggi yillarda O'zbekistonda zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlanish dinamikasini kuzatib, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin (*Jadval 1*).

Jadval 1

2017-2023 yillarda O‘zbekistonda axborot texnologiyalarining rivojlanishi[9]



Iqtisodiy tadqiqot va islohotlar markazi mutaxassislari tomonidan “O‘zbekistonda axborot texnologiyalarining 2017-2023 yillardagi rivojlanish dinamikasi”ni bugungi axborot asrida mamlakatimiz rivojiga hissa qo‘shishga joriy qilinayotgan zamonaviy texnologiyalarni taraqqiyot xavfsizligiga ta’minlashdagi fenominal ta’sirini o‘rgangan. Ahamiyatlisi, axborot texnologiyalari, raqamlashtirish va elektron huqumat kabi innovatsion jarayonlarni ijobiy va salbiy hodisa sifatida namoyon bo‘layotganligini, shuningdek barcha sohalar kabi jamoat xavfsizligi va barqaror taraqqiyotni ta’minlash tizimiga ham o‘ziga xos ta’sirini ilmiy tahlil qilgan muhim roli asoslantirilgan.

Xavfsizlik tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish – bu nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati samaradorligining oshishini, balki ularning jamoatchilik bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatishini ham anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 22 sentyabrda qabul qilingan qarorida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish masalalari nazarda tutilgan edi. Bu borada 2014 yilda O‘zbekiston Respublikasining «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilinganligini ham qayd etish lozim, bu qonun huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining ochiqligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatda davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish maqsadida bir qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya

vositalarini ommaviy ravishda joriy etish hamda ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga bo'lgan talab-ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish, jahon axborot maydoniga qo'shilish, jahon axborot resurslaridan foydalanishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 mayda «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida» PF-3080-son Farmoni[10] qabul qilindi.

Axborotlashtirish sohasida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirishning prinsipial masalalari O'zbekiston Respublikasining «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi (1997 yil), shuningdek, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi (2002 yil) hamda «Axborotlashtirish to'g'risida»gi (2003 yil) qonunlarida o'z aksini topgan.

“O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari” deb nomlangan yakunlovchi bobida O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq tendensiyalarning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Jumladan, ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlari, mavjud to'siqlar, ayrim kamchiliklar ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida “raqamli” texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada davlat rahbari va hukumat tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati hamda ularni amalga oshirish jarayonlariga e'tibor qaratilgan. Xususan, xavfsizlik tizimlarini joriy etish va ularning ishlash bosqichlarida fuqarolarning huquqlari himoyasi, qonuniylik, shaffoflik va samaradorlik bilan bog'liq masalalar tadqiq qilingan.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlashda innovasion texnologiyalarni joriy etish masalasi jadal davom etmoqda. Shunga qaramasdan, mutaxassislar mazkur tizimning to'laqonli amal qilishiga to'sqinlik qilayotgan ayrim sabablar mavjudligini — jumladan zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlanganlik darajasining va xavfsizlik sohasida ilmiy-texnikaviy ishlanmalarning yetarli emasligi kabi holatlarni qayd etishmoqda[11].

Shu ma'noda ta'kidlash kerakki, jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalarni to'laqonli joriy etish “raqamli jamiyat”ni rivojlantirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq. Raqamli jamiyatni rivojlantirish, xavfsizlik tizimlarining samarali ishlashini ta'minlash, aholi, jamoat tashkilotlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratadi, shuningdek, nafaqat xavfsizlik sohasidagi, balki ko'plab ijtimoiy muammolarni ham hal etishga katta turtki beradi. Raqamli xavfsizlik tizimi bu axborot-kommunikasiya texnologiyalariga (AKT) asoslangan zamonaviy yondashuvdir. Ushbu

konsepsiya dastlab rivojlangan davlatlarda paydo bo'lib, bugungi kunda global ahamiyat kasb etmoqda.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimiga axborot texnologiyalarni joriy etishda elektron hukumatni to'laqonli qo'llash "raqamli iqtisodiyot"ni rivojlantirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, "elektron hukumat" tizimining joriy etilishini ta'minlash, aholi, biznes va davlat o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratadi, shuningdek, nafaqat iqtisodiy, balki ko'plab ijtimoiy muammolarni ham hal etishga katta turtki beradi. Raqamli iqtisodiyot bu axborot-kommunikasiya texnologiyalariga (AKT) asoslangan iqtisodiyotdir[12].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, global rivojlanish tendensiyalariga mutanosib tarzda mamlakatimizda zamonaviy «axborot kommunikasiya texnologiyalari asosida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish, xavfsiz muhitni qaror toptirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xalqqa xizmat qilishi kerak» degan asosiy tamoyilni to'liq ta'minlash amalda zamonaviy xavfsizlik tizimlarining samarali joriy qilinishiga bevosita bog'liqdir.

Umuman olganda, o'rganilgan manbalar va mutaxassislar yondashuvidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish doirasida quyidagi vazifalar va istiqbolli yo'nalishlarni ko'rsatish mumkin:

1. Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimining samarali ishlashi uchun mamlakat hududida yuqori tezlikdagi internet tarmog'ini rivojlantirish, ayniqsa chekka hududlarda va mobil qurilmalarda. Zero, hozirda videokuzatuv tizimlari va boshqa xavfsizlik vositalarining sifatli ishlashi internet tarmog'ining barqarorligi bilan uzviy bog'liqdir.

2. Fuqarolarga jamoat xavfsizligi sohasida yuqori sifatli va qulay xizmatlarni onlayn taqdim etish hamda bu yo'nalishda fuqarolik jamiyati institutlari va mahalla faollari bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish.

3. Jamoat xavfsizligi tizimini modernizasiya qilish jarayonlarida qabul qilinayotgan qarorlar, amalga oshirilayotgan ishlar hamda ishlab chiqilayotgan me'yoriy-huquqiy xujjatlarning sifatini ta'minlashda soha mutaxassislari jalb qilish lozim. Shu bois, bu borada xavfsizlik sohasida faoliyat yuritayotgan malakali mutaxassislardan iborat institutsional tuzilmalarni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Bu xavfsizlik texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar klubi, sohaga ixtisoslashgan ekspertlar guruhi va boshqacha shakllarda bo'lishi mumkin.

4. Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish orqali xizmatlar ko'rsatishning samaradorligini oshirish, innovasion rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari va jahon standartlarini hisobga olgan holda xavfsizlik tizimini modernizasiya qilish.

5. “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” doirasida raqamli texnologiyalarga asoslangan inson kapitalini rivojlantirish, xavfsizlik sohasi uchun malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirib borish.

6. Jamoat xavfsizligi tizimiga oid dasturlar va dasturiy ta’minot ishlab chiqaruvchi dunyoning yirik xavfsizlik texnologiyalari kompaniyalari bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, sohada faoliyat yuritayotgan dunyoning yirik kompaniyalari bilan uzviy hamkorlik qilish hamda mahalliy kadrlarni tajriba orttirish maqsadida ushbu kompaniyalarga ma’lum muddatga yuborish. Bu o‘z navbatida, mahalliy xavfsizlik texnologiyalari kompaniyalari va dasturiy ta’minot ishlab chiqaruvchilari, ularning mahsulotlari va xizmatlari to‘g‘risida yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradi.

7. Mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlashda raqamli texnologiyalarni joriy etishning amaliy masalalarini hal etish va xavfsizlik sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish jarayonida jamoatchilik va xorijiy ekspertlar bilan samarali va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish.

8. Aholi uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish, shuningdek, jamoat xavfsizligi sohasidagi xizmatlarni takomillashtirish, xavfsizlik bilan bog‘liq murojaatlarni ko‘rib chiqish va javob berish mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta’minlash.

9. Har bir tuman va shaharda mavjud infratuzilma ob’ektlari negizida aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni xavfsizlik sohasidagi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha o‘qitish markazlari tashkil qilish lozim.

10. Strategiya doirasida belgilangan vazifalarning bajarilishi ustidan qat’iy monitoring tizimini joriy qilish va bu jarayonda keng jamoatchilik, fuqarolik jamiyati institutlari va mahalla faollari ishtirokini ta’minlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эргашов Ж. Развитие электронного правительства в Республике Узбекистан // cyberleninka.ru/article/n/razvitie-elektronnogo-pravitelstva-v-respublike-uzbekistan
2. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) “raqamli iqtisodiyot” elektron ma’lumot almashish, uni qayta ishlash va boshqarishni ta’minlaydigan yoki yaratadigan korxonalar deb tasniflaydi.
3. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) “raqamli iqtisodiyot” elektron ma’lumot almashish, uni qayta ishlash va boshqarishni ta’minlaydigan yoki yaratadigan korxonalar deb tasniflaydi.
4. Доклад о Цифровой экономике 2019. Конференция ООН по торговле и развитию. Обзор ЮНКТАД
5. Mamasoatov D. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o‘tish

- zarurati, shart-sharoitlari va imkoniyatlari. Sharq mamlakatlarining raqamli iqtisodiyotga o'tish tajribasi: imkoniyatlar va muammolar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – T.: 2021. – 125 b.
6. "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni // lex.uz/docs/5841063
 7. Mazkur tadqiqot BMTning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha Departamenti tomonidan 2 yilda bir marotaba 2001 yildan buyon o'tkazib kelinadi.
 8. Исследование ООН: Электронное правительство 2022" // publicadministration.un.org/egovkb/en-us/
 9. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi // Infografika: 2017-2023 yillarda O'zbekistonda axborot texnologiyalarining rivojlanishi // <https://www.cer.uz/>
 10. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – 2002. 10-son, 77-modda.
 11. Эргашов Ж. Развитие электронного правительства в Республике Узбекистан // cyberleninka.ru/article/n/razvitie-elektronnogo-pravitelstva-v-respublike-uzbekistan
 12. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) "raqamli iqtisodiyot" elektron ma'lumot almashish, uni qayta ishlash va boshqarishni ta'minlaydigan yoki yaratadigan korxonalar deb tasniflaydi.